

## KONTRASTIV LEKSIKOLOGIYA TAMOYILLARI VA ULARNING IKKI TILLI LEKSIKOGRAFIYA HAMDA TARJIMA AMALIYOTIDAGI O'RNI

*Istoda Rasulova*

*Samarqand davlat universiteti*

*O'zbek tilshunosligi dotsenti*

*e-mail: [istoda.87@gmail.com](mailto:istoda.87@gmail.com)*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada kontrastiv tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan kontrastiv leksikologiyaning mazmuni, metodlari va uning leksikografiya hamda tarjima amaliyotidagi roli tahlil qilinadi. Leksik maydon yondashuvi, komponent tahlil va leksiko-semantik yondashuvning nazariy asoslari hamda ular yordamida tillararo leksik tizimlarning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Maqolada ikkitillik leksikografiyada ekvivalent tanlash, kollokatsiyalarni belgilash, konnotativ ma'nolarni qayd etish kabi jarayonlarda kontrastiv tahlilning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, tarjimada leksik interferensiya, "soxta do'stlar" hodisasi, shaklan o'xshash, ammo semantik jihatdan farqlanuvchi birliklar misolida kontrastiv metodning zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari kontrastiv tilshunoslik, o'quv leksikografiya va tarjima nazariyasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib, ularning lingvodidaktik jarayondagi amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

*Kalit so'zlar:* kontrastiv leksikologiya, leksik maydon, komponent tahlil, leksiko-semantik yondashuv, ikki tilli leksikografiya, tarjima nazariyasi, leksik interferensiya, soxta do'stlar, ekvivalentlik, kollokatsiya, lingvodidaktika.

## PRINCIPLES OF CONTRASTIVE LEXICOLOGY AND THEIR ROLE IN BILINGUAL LEXICOGRAPHY AND TRANSLATION PRACTICE

*Istoda Rasulova*

*Samarkand State Pedagogical Institute*

*Associate Professor of Uzbek Linguistics*

**Abstract.** *This article analyzes the content, methods, and role of contrastive lexicology in lexicography and translation practice. It shows the theoretical foundations of the lexical field approach, component analysis, and the lexical-semantic approach, as well as the possibilities of identifying similarities and differences between interlingual lexical systems using them. The article discusses the importance of contrastive analysis in binary lexicography, such as the selection of equivalents, the determination of collocations, and the notation of connotative meanings. The need for the contrastive method is also confirmed in the example of lexical interference in translation, the phenomenon of "false friends" – units similar in form, but semantically divergent. The results of the study reveal a close relationship between contrastive linguistics, educational lexicography and translation theory, and also show their practical importance in the linguistic process.*

**Keywords:** *contrast lexicology, lexical field, component analysis, lexical-semantic approach, bilingual lexicography, translation theory, lexical interference, false friends, equivalence, collocation, lingodidactics.*

## **ПРИНЦИПЫ КОНТРАСТИВНОЙ ЛЕКСИКОЛОГИИ И ИХ РОЛЬ В БИЛИНГВАЛЬНОЙ ЛЕКСИКОГРАФИИ И ПРАКТИКЕ ПЕРЕВОДА**

***Истода Расулова***

*Самаркандский государственный педагогический институт*

*доцент узбекской лингвистики*

**Аннотация.** *В этой статье анализируются содержание, методы и роль контрастивной лексикологии в лексикографии и практике перевода. Показываются теоретические основы подхода лексического поля, анализа компонентов и лексико-семантического подхода, а также возможности выявления сходств и различий межязычных лексических систем с их помощью. В статье рассматривается важность контрастивного анализа в бинарной*

лексикографии, такой как выбор эквивалентов, определение коллокаций и запись коннотативных значений. Также подтверждается необходимость контрастного метода в примере лексической интерференции в переводе, явления «ложных друзей» — единиц, схожих по форме, но семантически расходящихся. Результаты исследования выявляют тесную связь между контрастной лингвистикой, образовательной лексикографией и теорией перевода, а также показывают их практическое значение в лингвистическом процессе.

**Ключевые слова:** контрастная лексикология, лексическое поле, компонентный анализ, лексико-семантический подход, билингвальная лексикография, теория перевода, лексическая интерференция, ложные друзья, эквивалентность, коллокация, лингводидактика.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda kontrastiv tahlil til tizimlarining o'zaro munosabatini, o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashda muhim ilmiy metod sifatida qaraladi (James, 1980). Ayniqsa, leksikologiya, leksikografiya va tarjima sohalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rganish kontrastiv tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biridir (Loffler-Laurian, 2000). Har bir tilda leksik birliklar shakl, ma'no va qo'llanish jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni solishtirish orqali til tizimining ichki va tashqi qonuniyatlarini aniqlash mumkin.

Leksikologiya – so'z va uning ma'nosini, semantik tuzilishini, morfologik jarayonlarini o'rganuvchi fan sifatida – leksikografiyaning nazariy poydevorini tashkil etadi (Lehmann & Martin-Berthet, 2000). Leksikografiya esa bu bilimlarni amaliy jihatdan lug'at tuzish jarayonida qo'llaydi. Shunday qilib, leksikologiya va leksikografiya o'zaro chambarchas bog'langan tizim bo'lib, ularning birligi tarjima jarayonida ham beqiyos ahamiyat kasb etadi (Hartmann, 1983). Z.Harouni (2004) o'z tadqiqotida aynan shu uchlik – kontrastiv leksikologiya, ikkitillik leksikografiya va tarjima – o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, ularning har biri tillararo munosabatlarni o'rganishda alohida, ammo bir-birini to'ldiruvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Kontrastiv leksikologiya ikki tilning leksik tizimini shakl va ma'no

darajasida solishtirib, har bir tildagi asosiy tendensiyalarni ochib beradi; ikkitillik leksikografiya esa bu ma'lumotlarni tizimli ravishda lug'at shaklida jamlab, foydalanuvchiga ma'no va qo'llanish nuqtani nazaridan aniq yo'l-yo'riq beradi (Lyons, 1977). Bugungi globallashtirish sharoitida bunday tadqiqotlar nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliy qiymatga ham ega. Xususan, kontrastiv yondashuv asosida yaratilgan o'quv lug'atlar o'quvchilarning ikki til o'rtasidagi semantik tafovutlarni to'g'ri anglashiga, tarjimada xatolarni kamaytirishga va tilni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi (Paillard, 2000). Shu sababli, kontrastiv leksikologiyani natijalarini o'quv leksikografiyada qo'llash masalasi zamonaviy lingvodidaktikaning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi (Kayumova, 2016). Kontrastiv leksikologiya kontrastiv tilshunoslikning tarkibiy qismi bo'lib, turli tillardagi leksik tizimlarning morfologik va semantik jihatlarini taqqoslab o'rganadi. Uning asosiy maqsadi — ikki yoki undan ortiq tillardagi leksik birliklarning tuzilish va ma'no jihatdan o'xshash hamda farqli tomonlarini aniqlash, bu orqali har bir tilning o'ziga xos leksik tizimini tavsiflashdir (Harouni, 2004).

Z. Harouni ta'kidlaganidek, kontrastiv leksikologiya nafaqat so'z shakli va ma'nosini tahlil qiladi, balki ularning sintaktik muhitdagi taqsimlanishini, ya'ni so'zlarning gap ichidagi birikish imkoniyatlarini ham o'rganadi. Shu sababli bu yo'nalish leksik morfologiya va leksik semantikani o'z ichiga oladi (Lehmann & Martin-Berthet, 2000).

Kontrastiv tahlilda uchta yondashuv asosiy nazariy yo'nalish sifatida ajratiladi:

1. **Leksik maydon yondashuvi (lexical field approach)**
2. **Komponent tahlil yondashuvi (componential analysis)**
3. **Leksiko-semantik yondashuv (lexico-semantic approach)**

Bu yondashuvlar o'zaro bir-birini to'ldiradi va birgalikda tillararo leksik tizimlarni tahlil qilish uchun mukammal metodologik asosni tashkil etadi.

Leksik maydon yondashuvi tilning leksik tizimi fonologiya va grammatika singari qat'iy tuzilgan tizim ekanligi haqidagi g'oyaga asoslanadi. Ushbu yondashuvda har bir leksema o'zining ma'nosini tizimdagi boshqa leksemalar bilan nisbiy o'rni orqali namoyon etadi (Lehmann & Martin-Berthet, 2000). Tilning umumiy leksik tizimiga

etishishdan avval, soʻzlar maʼnosiga koʻra kichik guruhlar yoki semantik maydonlarga ajratiladi. Masalan, qarindoshlik atamalari, rang nomlari, harakat feʼllari, yoki ilmiy-texnik terminlar kabi sohalar leksik maydonlarning klassik namunalaridir (Harouni, 2004). Zamonaviy tadqiqotlar bu yondashuvning nafaqat umumiy leksik tizim, balki maxsus fanlar terminologiyasi va ixtisoslashgan lugʻatlar tuzishda ham keng qoʻllanilishini koʻrsatmoqda. Masalan, ingliz tilidagi Roget's Thesaurus va Longman Lexicon lugʻatlari aynan semantik maydonlar prinsipiga asoslanadi (Lloyd, 1983; McArthur, 1982).

Leksik maydon yondashuvi til tizimini tahlil qilishda paradigmatic (soʻzlarning tanlanish munosabatlari) va sintagmatic (soʻzlarning birikish munosabatlari) aloqalarni aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan u keyingi ikkita yondashuv – komponent tahlil va leksiko-semantik tahlil – uchun poydevor hisoblanadi. Komponent tahlil (componential analysis) baʼzi tilshunoslar tomonidan “semantik belgilarning tahlili” (Hatch & Brown, 1995) yoki “leksik dekompozitsiya” (Lyons, 1983) deb ham ataladi. Bu yondashuvga koʻra, har bir leksema oʻzining maʼnosini asosiy semantik komponentlarga ajratish orqali tavsiflanadi. Ushbu metod fonologiyadagi “farqlovchi belgilar” prinsipi asosida yaratilgan. James (1980) taʼkidlaganidek, *“Har bir leksema semantik komponentlardan tashkil topadi, xuddi fonemalar fonologik xususiyatlardan tashkil topgani kabi.”*

Komponent tahlil natijasida turli tillardagi leksik birliklarning oʻzaro semantik aloqalari aniqlanadi. Masalan, “move”, “walk”, “run” singari inglizcha feʼllar bir maydon doirasida umumiy harakat semasiga ega, ammo tezlik, yoʻnalish, yoki maqsad komponentlari orqali farqlanadi. Bunday yondashuv har bir tildagi leksik tizimni semantik jihatdan aniqlashtirishga xizmat qiladi (Harouni, 1999). Lyons (1977) bu metodni *“leksik maydon nazariyasining mantiqiy davomi”* sifatida baholagan va uni nazariy hamda metodologik jihatdan ishonchli asos deb hisoblagan. Shu bois komponent tahlil leksik tizimlarni kontrastiv tahlil qilishda eng samarali vositalardan biridir.

Leksiko-semantik yondashuv leksik birliklarning ichki (inherent) va kontekstual (acquired) xususiyatlarini oʻrganadi (Harouni, 2004). Yaʼni, soʻzning maʼnosi nafaqat

uning morfologik yoki semantik tuzilishidan, balki u ishtirok etayotgan kontekstdan ham kelib chiqadi. *Masalan*, o'zbek tilidagi "ko'chmoq" fe'li yo'nalishsiz, ya'ni ikki tomonlama ma'noga ega — u rus tilidagi "переехать" (bir joydan boshqasiga ko'chib o'tmoq) va "переезжать" (ko'chish jarayonida bo'lmoq) fe'llarini bir vaqtning o'zida ifodalaydi. O'zbek tilida bu so'z kontekstga qarab yoki "ko'chib ketdi", "ko'chib keldi" kabi shakllarda aniqlanadi. Bunday holatda so'zning aniq ma'nosi kontekst orqali belgilanadi, chunki o'zbek tilida harakat yo'nalishini ko'rsatadigan maxsus affikslar yoki fe'l juftliklari mavjud emas, ma'no faqat sintaktik tuzilma va gap mazmuni orqali ochiladi. Rus tilida esa bu ikki fe'l ("переехать" va "переезжать") grammatik jihatdan qat'iy farqlangan bo'lib, biri yakunlangan harakatni, ikkinchisi esa davomli jarayonni bildiradi.

Shunday qilib, bu misol leksiko-semantik yondashuvning mohiyatini yaqqol namoyon etadi – bir tildagi bitta leksema boshqa tilda ikki yoki undan ortiq ekvivalentlarga ega bo'lishi mumkin, bu esa tarjimada va lug'at tuzishda kontekstni to'g'ri belgilash zaruratini ko'rsatadi. Demak, leksiko-semantik yondashuv har bir tildagi leksik birliklarning kontekstual xususiyatlarini, ularning kollokatsion imkoniyatlarini, semantik kengayishlarini va stilistik o'ziga xosliklarini tahlil qiladi. Bu esa tarjima, lug'at tuzish va leksik tizimni chuqur anglash uchun zarur nazariy asos yaratadi (Paillard, 2000). Kontrastiv leksikologiya, yuqoridagi uch yondashuv orqali, tillar o'rtasidagi semantik tizimlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. U nafaqat leksik farqlarni aniqlaydi, balki tarjima, ikki tilli lug'at tuzish va til o'qitish amaliyoti uchun zarur nazariy manba sifatida xizmat qiladi (Harouni, 2004).

Ikki tilli lug'atlar (bilingual dictionaries) – bir til foydalanuvchisi uchun ikkinchi tilning so'z yukini tushunish va qo'llash imkonini beruvchi vosita sifatida – maxsus prinsiplar asosida tuziladi. Lug'at tuzishda asosiy e'tibor tilararo ekvivalentlik, foydalanuvchi ehtiyojlari, so'zning kontekstga muvofiqligi va strukturaviy aniqlikga qaratiladi (Adamska-Sałaciak, 2014). Lug'at tuzishda mikro-tilshunoslik yondashuvi individual leksik birliklarni, ularning morfologik, semantik va kollokatsion jihatlarini o'rganadi. Makro-tilshunoslik yondashuvi esa tilning leksik tizimlarini, tilaro munosabatlarni va lug'at shablonlarini ko'zda tutadi (Ilson, 2013). Ikki tilli lug'at

tuzishda soʻzning faqat ekvivalenti koʻrsatilishi bilan cheklanmasdan, uning til ichidagi spetsifik qoʻllanishlari, kollokatsiyalari, stilistik va pragmatik farqlari ham taqdim etilishi lozim. Bu esa foydalanuvchiga soʻzni nafaqat tarjima qilish balki toʻgʻri qoʻllash imkonini beradi (Piotrowski, 2011).

Tarjima jarayonida tillararo farqlarni (yaʼni shakl, semantika, sintaksis) aniqlash uchun kontrastiv tilshunoslik yondashuvi muhim vosita hisoblanadi. Masalan, tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, tarjimonlar ona tilidan maqsad tilga oʻtishda til oʻziga xos **ostrukturaviy transfer** (interference) xatolariga duch kelishi mumkin. Shu jihatdan, tarjima mahsuloti sifatini oshirish uchun ortiqcha qoʻshishlar, qiyosiy til nazariyasi va korpus asosida tahlil qilish zarurdir. Tarjimada eng koʻp uchraydigan muammolardan biri – manba tilning strukturasi yoki leksik birliklarini maqsad tilga bevosita koʻchirib qoʻyish, yaʼni **tillaro transfer** (interlingual transfer) xatosidir. Bu xato maqsad tilning semantik yoki sintaktik qonunlariga mos kelmaydi va notoʻgʻri tarjimaga olib keladi. Masalan, manba tilga xos sintaktik yoki morfologik tuzilma maqsad tilga bevosita oʻtkazilganda, maʼnodagi noaniqlik yoki xato paydo boʻladi. Yana bir tadqiqotda aniqlanishicha, **rus tilidan ingliz tiliga tarjima qiluvchi talabalarda “soxta doʻstlar” (false friends)** deb ataluvchi leksik birliklar tufayli semantik xatolar koʻp uchraydi. Bunday soʻzlar shaklan oʻxshash boʻlsa-da, maʼnosi jihatidan farq qiladi, natijada tarjimada notoʻgʻri ekvivalent tanlanadi. Tadqiqot mualliflari bu hodisani **leksik interferensiya** natijasi sifatida izohlaydi (Kharitonova, 2021).

Masalan, oʻzbek tilidagi “faktura” soʻzi hisob-faktura (invoice) maʼnosida ishlatiladi, lekin rus tilidagi «фактура» soʻzi koʻpincha “sirt tuzilishi”, «фактура ткани» (*mato sirtining tuzilishi*) maʼnosida qoʻllaniladi. Shu sababli, tarjimon kontekstni hisobga olmasa, soʻzning shakliy oʻxshashligiga asoslanib semantik xatoga yoʻl qoʻyadi. Bu misol kontrastiv yondashuvning tarjima amaliyotidagi zaruratini koʻrsatadi: shaklan oʻxshash leksik birliklar maʼno jihatidan farqlanishi mumkin, shuning uchun ularni toʻgʻri tarjima qilish uchun kontekstual tahlil va ikki tilning semantik tizimini solishtirish zarur (Kharitonova, 2021). Shu bilan birga, kontrastiv tahlil tarjimonlarga til oʻziga xosligi — masalan: kollokatsiya uslubi, maʼnodagi

maydonlar, leksik maydon ichidagi o'zaro munosabatlarni ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu esa lug'at tuzishda va tarjima matni tayyorlashda chuqur ilmiy poydevor yaratadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kontrastiv tilshunoslik, leksikologiya, leksikografiya va tarjima nazariyasi o'zaro uzviy bog'liq fan sohalaridir. Ularning har biri tillararo o'xshashlik va farqlarni o'rganish orqali leksik tizimlarning strukturasi, semantik mexanizmlari va ma'no uzatilish qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi (James, 1980; Harouni, 2004). Kontrastiv leksikologiya ikki tilning leksik tizimini shakl va ma'no darajasida solishtirish orqali tildagi dominant tendensiyalarni ochib beradi. Ikkitillik leksikografiya esa bu nazariy natijalarni amaliy shaklda qo'llab, foydalanuvchiga ma'nodoshlik, antonimiya, kollokatsiya va konnotatsiya darajasidagi farqlarni to'g'ri anglash imkonini yaratadi (Adamska-Salaciak, 2014; Ilson, 2013).

Tarjima jarayonida kontrastiv yondashuv esa ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki u til o'ziga xosliklarini aniqlash, transfer xatolarini kamaytirish, va "soxta do'stlar" kabi leksik interferensiya holatlarini bartaraf etishga yordam beradi (Kharitonova, 2021). Bunday tahlil nafaqat tarjimonlar, balki o'quv lug'atlari tuzuvchilari uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Natijada, kontrastiv tahlil va leksikografik yondashuvlarning integratsiyasi til o'qitish, tarjima sifati va madaniyatlararo kommunikatsiya samaradorligini oshiradi. Shu bois, zamonaviy lingvodidaktikada kontrastiv yondashuvni chuqur o'rganish, uni o'quv leksikografiya va tarjima amaliyotiga tatbiq etish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi (Hartmann & James, 1998; Piotrowski, 2011).

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adamska-Salaciak, A. Bilingual lexicography: Translation dictionaries // *International Handbook of Modern Lexis and Lexicography*. – Springer, 2014. – URL:  
[https://www.academia.edu/19690444/Bilingual\\_lexicography\\_Translation\\_dictionaries](https://www.academia.edu/19690444/Bilingual_lexicography_Translation_dictionaries) (murojaat sanasi: 28.09.2025).
2. Alisherova, S. A.; Sodikova, S. A. *The lexicographic principles for creating thematic dictionaries in English and Uzbek languages*. International Journal of

- Science and Technology, 2(05), 133–135. – URL: <https://science-technology.uz/index.php/journal/article/download/308/265/529> (murojaat sanasi: 17.10.2025).
3. Harouni, Z. *Contrastive lexicology, bilingual lexicography and translation*. – Université Mentouri, Constantine, 2004. – URL: [https://www.academia.edu/35586341/Contrastive\\_Lexicology\\_Bilingual\\_Lexicography\\_and\\_Translation\\_A](https://www.academia.edu/35586341/Contrastive_Lexicology_Bilingual_Lexicography_and_Translation_A) (murojaat sanasi: 31.10.2025).
4. Hartmann, R. R. K. (Ed.). *Lexicography: Principles and practice*. – London: Academic Press, 1983. – 276 b.
5. Hartmann, R. R. K.; James, G. *Dictionary of lexicography*. – London: Routledge, 1998. – 228 b. – URL: [https://nubip.edu.ua/sites/default/files/u5/r\\_r\\_k\\_hartmann\\_gregory\\_james-dictionary\\_of\\_lexicography-routledge\\_1998.pdf](https://nubip.edu.ua/sites/default/files/u5/r_r_k_hartmann_gregory_james-dictionary_of_lexicography-routledge_1998.pdf) (murojaat sanasi: 15.09.2025).
6. Ilson, R. *Dictionaries, lexicography and language learning*. – London: British Council, 2013. – URL: [https://www.teachingenglish.org.uk/sites/teacheng/files/pub\\_F044%20ELT-32%20Dictionaries%2C%20Lexicography%20and%20Language%20Learning\\_v3.pdf](https://www.teachingenglish.org.uk/sites/teacheng/files/pub_F044%20ELT-32%20Dictionaries%2C%20Lexicography%20and%20Language%20Learning_v3.pdf)
7. James, C. *Contrastive analysis*. – London: Longman, 1980. – 200 b.
8. Kayumova, D. F. *Prikladnoe ispol'zovanie rezultatov kontrastivnyx issledovaniy v uchebnoy leksikografii*. – Kazan, 2016. – 158 b.
9. Kharitonova, O. S. False friends in Russian-English translation and their impact on EFL learning // *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*. – 2021. – Vol. 118. – P. 353–360. – URL: <https://www.europeanproceedings.com/article/10.15405/epsbs.2021.12.42> (murojaat sanasi: 14.10.2025).
10. Lehmann, A.; Martin-Berthet, F. *Introduction à la lexicologie: Sémantique et morphologie*. – Paris: Nathan, 2000. – 224 b.

- 11.Loffler-Laurian, A.-M. Les apports de la méthodologie contrastive à la lexicographie bilingue // In: Szende, T. (Ed.). *Approches contrastives en lexicographie bilingue*. – Paris: Champion, 2000. – P. 45–62.
- 12.Lyons, J. *Semantics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897 b.
- 13.Paillard, M. *Lexicologie contrastive anglais–français: Formation des mots et construction du sens*. – Paris: Ophrys, 2000. – 312 b.
- 14.Piotrowski, T. *Problems in bilingual lexicography*. – 2011. – URL: <https://bibliotekanauki.pl/books/1389252.pdf> (murojaat sanasi: 06.10.2025).